

qaysidir moliya yilini salbiy natija bilan yakunlagan taqdirda kichik inqirozlarni yengillashtirishga va osongina yengib o'tishga yordam beradi va kompaniyani birdaniga bankrotlik yoqasiga kelib qolishdan qaytaradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi 4611-sonli qarori.

Mirziyoyev Sh.M. "YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI": - T: "O'zbekiston". 2022-y. 418-b.

Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Darslik. – T.: "Iqtisodmoliya", 2019 y. - 584 b.

Norbekov D.E., To'raev A.N., Raxmonov Sh.Sh. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. –Toshkent: "Iqtisod-moliya, 2019 y. -329 b.

Ergasheva Sh.T., Uchebnik «Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti» –T.: TGEU, 2020 g.- 307 str.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 9 Moliyaviy instrumentlar (IFRS 9 –International Financial Reporting Standart). IFRS Foundation 2022

The manual of Accounting – IFRS 2019. The Global Accounting Consulting Services team of PricewaterhouseCoopers LLP 2019.

RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI TENDENSIYALARI VA RAQOBATBARDOSHLILIKNI OSHIRISH

D.H.Suvonov

A.F.Erboyev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyotni rivojlantirish har doim davlatlarning oldida turgan eng katta maqsadi hisoblanadi. Iqtisodiyot bu davlatlarni rivojlanishi va o'sishini ta'minlovchi manba hisoblanadi. Biz iqtisodiyot deb atayotganimiz bu davlatlarning savdo munosabatlaridan tortib ishlab chiqarish korxonalar, korporatsiyalar va doimiy valyuta va pul bilan bo'ladigan tranzaksiyalar va munosabatlar hisoblanadi. Iqtisodiyotni tarkibida moliya ham mavjud. Moliya asosan pul bo'ladigan munosabatlardir. Iqtisodiyot bu davlatlarning eng muhim rivojlanish vositasi hisoblanadi. Bu iqtisodiyotni rivojlantirish uchun biz zamonaviy texnologiyalardan foydalanishimiz hozirgi kunning talabi bo'lib qoldi desak xato qilmagan bo'lamiz. Hozirda iqtisodiyotni yangicha raqamlashtirish orqali biz uni raqamli iqtisodiyot deb atadik va bu orqali biz iqtisodiyotda yangi texnologiyalarni qo'llash orqali rivojlantiramiz va bu rivojlanishni bir necha barobarga oshirishi sir emas.

Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir. Bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi atomdan bitga, ya'ni kimyoviy eng kichik zarradan elektron birlikka o'tishga asoslanadi. Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat obyektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o'sish, faoliyat shaffofligini ta'minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar

natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi. Xalqaro amaliyotga yuzlanadigan bo'lsak, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va xizmatlar sohasi bilan cheklanib qolmay, balki hayotning har bir jabhasiga, xususan, sog'liqni saqlash, fan-ta'lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet-banking va boshqa sohalarga jadal kirib bormoqda va ularning har birida o'zining yuqori samaralarini bermoqda. Davlat o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi — bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi.

Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish korrupsiya illatiga barham beradi. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, eng avvalo, puxta va mukammal tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo'yicha davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining uzviy hamkorligini ta'minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish, shu orqali, mamlakatda "axborotlashgan jamiyat" muhitini yaratishga xizmat qiladi. Jahon banking ma'lumotlariga ko'ra, yer yuzida umumiy boyligining 66 foizi — 365 trillion AQSH dollari inson kapitaliga, ya'ni asosan shaxsning ilm darajasiga to'g'ri kelmoqda. AQSHda ushbu ko'rsatkich milliy boylikning 77 foizi — 95 trillion dollarga yetgan. Bundan ko'rinib turiptiki hozirgi zamonning eng qimmatli bo'lgan mahsuloti bu aql-zakovat hisoblanadi. Yaponiyani misol qilib oladigan bo'lsak ularning tabiiy boyliklari deyarli yo'q lekin iqtisodiyoti gullab yashnamoqda. Bunga asosiy sabab ular intellekt sotish orqali davlat iqtisodiyotini rivojlantirishmoqda. Iqtisodiyotni biz YaIM tushunchasiz tasavvur qila olmaymiz. YaIM—yalpi ichki mahsulot. Bu davlatning 1 yil mobaynida ishlab chiqargan va ko'rsatgan xizmatidan ishlab topgan barcha kapitali hisoblanadi. Zamonaviy ilm-fanning cho'qqisi yuqori texnologiyalarda, raqamli olamda ko'zga tashlanadi. To'rtinchi sanoat inqilobi taraqqiyotning yangi ko'rinishi — "raqamli iqtisodiyot" boshlangani anglatadi. Bugungi kunga kelib jahonda raqamli iqtisodiyot taraqqiy etgan 20 mamlakatda 2 trillion AQSH dollarini tashkil etayotgani hisoblab chiqilgan. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda dunyoda peshqadam Buyuk Britaniyada esa u hozirning o'zida milliy yalpi ichki mahsulotning 12 foiziga yetdi. Raqamli iqtisodiyot texnologik va biznes jarayonlari, ishlab chiqarish, logistika va tayyor mahsulotlarning savdosini raqamlashtirishni nazarda tutadi. Mamlakatimizda 2020-yilning o'zida transport, geologiya, ta'lim, arxiv kabi sohalarni to'liq raqamlashtirish belgilangan va bu boradagi ishlar jadal olib borilmoqda. Zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan "IT-park"lar ham fikrimiz dalilidir.

Raqamli iqtisodiyotning yetakchi davlatlar YAIMdagi ulushi yil sayin o'sib bormoqda. Masalan, uning AQSH iqtisodiyotidagi ulushi 10,9 foiz, Rossiyada 3,9 foiz, Hindistonda 5,5 foiz, Belarusda 6,5 foiz va Xitoyda 10 foizni tashkil etadi. O'zbekiston raqamli sanoat bozorini shakllantirish uchun uchta muhim shartni belgilab olganligi bizga sir emas. Unga ko'ra, raqamli muhitni me'yoriy tartibga solish (konsepsiya, dastur va qonun), infratuzilmaviy rivojlanish (data markaz, mobil, internet, biznes va ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish qurilmalari) va mutaxassislarni tayyorlash

sogʻlom bozorni yaratishda tirkak boʻladi. Oʻzbekistonda 2023 yilga kelib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravarga koʻpaytirishni nazarda tutgan holda, shu jumladan, ishlab chiqarishni boshqarishda axborot tizimlari kompleksini joriy qilish, moliyaviy-xoʻjalik faoliyatda hisobot yuritishda dasturiy mahsulotlardan keng foydalanish, shuningdek, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish orqali uni jadal shakllantirish reja qilingan va bu bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Oʻzbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 22 mln.dan ortdi, shundan mobil Internet foydalanuvchilari soni 19 mln.ni tashkil etdi. Respublika boʻyicha 237 ta obyektga magistral telekommunikatsiya tarmoqlari kengaytirilib, telekommunikatsiya uskunalari modernizatsiya qilinib, magistral telekommunikatsiya tarmoqlari oʻtkazuvchanlik qobiliyati viloyatlararo darajada 200 Gbit/s ga, tumanlararo darajada esa 40 Gbit/s ga yetkazildi. Ijobiy natijalar bor, biroq bu yetarli degani emas. Blokcheyn texnologiyalari tomonlarning hech qanday vositachisiz bitimlarni xavfsiz, ishonchli amalga oshirishga imkon beruvchi texnologiyadir. Uni koʻpchilik kriptovalyuta texnologiyasi sifatida bilsa-da, aslida blokcheyndan raqamli identifikatsiya, egalik va mulkiy huquqlar himoyasi, toʻlov tizimi sifatida foydalanish mumkin. Ethereum kabi blokcheyn bazasida ishlaydigan ochiq manbali platformalar anʼanaviy huquqiy jarayonlarsiz har qanday aktivlar boʻyicha bitimlar tuzish, bank xizmatlarini koʻrsatish imkonini beradi. Hozirda jahonning turli mamlakatlarida moliyaviy texnologiyalar, yer resurslarini boshqarish, transport, sogʻliqni saqlash, taʼlim sohaslarida blokcheyn tizimidan foydalaniladi. Blokcheyn tizimi har qanday sohaning shaffoflik darajasini oshiradi, korrupsiya holatlarining kamayishiga xizmat qiladi. Oʻzbekistonda raqamli iqtisodiyot va blokcheyn texnologiyalarining imkoniyatlari nihoyatda istiqbolli hisoblanadi. Hozir butun dunyo boʻylab yangi servislar va biznes modellarni yaratish uchun IT vositalaridan foydalanadigan eski va yangi kompaniyalar aksariyat sohalarda yetakchi boʻlgan kompaniyalarga kuchli raqobat tugʻdirmoqda

Prognozlarga koʻra, yaqinyillarda makroiqtisodiyot “lean production”, addiktiv, nano va biotexnologiya mezonlariga tayanadigan ishlab chiqaruvchilarga qattiq bogʻliq boʻlishi kutilmoqda. Shu munosabat bilan oqilona boshqaruv uchun zarur hisoblangan axborot koʻlami ham ortib boradi, ishlab chiqarish va fuqarolar muloqoti, biznes va davlat organlarini boshqarish tuzilmasi esa jiddiy oʻzgarishlarni boshdan kechiradi. Shu yangiliklar orqali biz raqamli iqtisodiyotni joriy etamiz va davlatning barqaror iqtisodiyotini taʼminlaymiz va yangiliklarga intilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

<https://infocom.uz/raqamli-iqtisodiyot-ilmiy-elektron-jurnali-3-son-2023-yil-iyul/>

<https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/raqamli_uzbekiston_2030_strategiyasi_qabul_qilindi